

Boshqarmaning asosiy vazifa va funksiyalari

1. ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalari va ularning boshqaruv organlariga rahbarlik qilish;

ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda avariya va yong'inlarni bartaraf etishda shoshilinch xizmatlar va vakolatli organlar bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil etish;

ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalari faoliyatiga zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlari, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tatbiq etish, shuningdek, ogohlantirish va xabardor qilishni ishlarini tashkillashtirish;

ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalari kuch va vositalarining doimiy shayligini tashkillashtirish;

ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida ishlarni tashkil etish;

2. ob'ektlarda shartnoma asosida tashkil etilgan yong'in-qutqaruv bo'linmalariga tashkiliy-metodik rahbarlik qilishni amalga oshiradi va uni takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi;

ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalari va ularning boshqaruv organlari faoliyatini barcha yo'nalishlar bo'yicha tekshiruvini amalga oshiradi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tadbirlarning bajarilishini nazorat qiladi, tezkor-xizmat faoliyatining samarali tashkil etilishida amaliy yordam ko'rsatadi;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va harakat qilish tizimida yong'in-qutqaruv faoliyatini ta'minlash bo'yicha funksiyalarni bajaradi;

ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalari xizmat faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha ishlarning holatini o'rganadi, tahlil qiladi va ularni takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi;

ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalarining kuch va vositalarini yong'inlarni oldini olish, yong'in va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tizimiga yuklangan funksiyalarni bajarishga tayyorgarligini nazorat qiladi;

ob'ektlarda yong'in-qutqaruv bo'linmalarini tashkil etish masalalari yuzasidan idoralararo komissiyasi tarkibida ishtirok etadi va belgilangan tartibda hujjatlarni tayyorlaydi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'radi;

shartnoma asosida faoliyat ko'rsatadigan yong'in-qutqaruv bo'linmalari va ularning boshqaruv organlari moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi;

moddiy resurslar va pul mablag'larining saqlanishi, ulardan maqsadli foydalanilishi bo'yicha o'z vaqtida tegishli choralar ko'rilishi hamda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy rejalashtirish uslublarini takomillashtirilishini ta'minlaydi.

ob'ektlardagi yong'in-qutqaruv bo'linmalarida mavjud bo'lgan asosiy, maxsus va yordamchi yong'in-qutqaruv avtomobillari hamda boshqa turdagi avtotransport vositalari, maxsus, jangovar kiyim-boshlar, yong'in-texnik mahsulot va asbob-uskunalar, tashkiliy texnika va boshqa tovar-moddiy boyliklar, bino va inshootlar hisobini yuritadi va holatini tahlil qiladi, shuningdek, me'yor talablari asosida ta'minlashga qaratilgan choralarni ko'radi;

Boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.